

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR LARNING O'YIN FAOLIYATIDA O'Z O'ZINI ANGLASHGA O'RGATISH TEXNALOGIYALARI

Abdug'afforova Navbahor Botirjon qizi¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif muassasalarida o'yindan foydalanish texnalogiyalari, o'yin faoliyatida o'zini anglash jarayonlari yoritilgan.

Annotation: This article describes the technologies of game use in preschool educational institutions, the processes of self-awareness in game activity

Аннотация: В данной статье описаны технологии использования игр в дошкольных образовательных учреждениях процесс самосознания в игровой деятельности.

Kalit so'zlar: o'yin, nutq, qoida, harakat, ijtimoiy tasir, munosabat, didaktik o'yin, harakatli o'yin.

Bugungi kunda Maktabgacha ta'lif soxasiga juda katta etibor berilmoqda. Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lif yo'nalishini tizimli rivojlantirish bo'yicha aniq davlat dasturi qabul qilindi, bolalarni maktabgacha ta'lif bilan qamrab olish darajasi 2 barobarga oshirilib 100 foizga yetkazildi"¹-deb aytgan so'zlari bu qaratilayotgan etiborning yaqqol isbotidir.

Maktabgacha ta'lif uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadryatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamyatga ega bo'lgan muassasadir. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bola shxsini tarbiyalashning asosiy vositasidir. O'yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, malaka, va ko'nikmalari harakat usullari, axloq no'rmalari va qoidalari, mulozaza va muhoka, alarini egallab oladilar. O'yinda bolalarning o'z tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat usullari shakllanadi. O'yin orqali bolalar o'zlarining istak hohishlarini namoyon qiladi. O'yin orqali o'zini anglash hislari rivojlanadi. Bolalarda o'yin orqali o'zaro muloqot kattalarga bo'lgan munosabat shakllanadi. O'yin ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyat bolib, uning mehnat bilan ko'p umumiyligi bor va yoshni mehnatga tarbiyalashga xizmat qiladi.

¹Sh.M.Mirziyoyev - "Yangi O'zbekiston Stetegyasi" -Toshkent-2021-226b

O'z-o'zini anglash – insонning atrof- muhitga bo'lgan munosabati, uning men tushunchasini, o'ziga bo'lgan munosabati. Pisixalogiyada o'z –o'zini anglash psixik hodisa, shaxsning o'zini faoliyat sub'ekti sifatida anglashi tushuniladi, buning natijasida shaxsning o'zi haqidagi tassavurlari aqliy "obraz-men" ga shakllanadi.

O'z- o'zini anglashning shakllanishiga quydagilar tasir qiladi: boshqalarni baholash va tengdoshlar guruxidagi maqom. Wolf Salomonovich Merlinning fikriga ko'ra, o'z ozini anglash to'rt komponentni o'z ichiga olgan murakkab pisixalogik tizimdir:

1. O'zining "men" ni anglash;

¹ *Namangan davlat pedagogika inustituti Ta'lif va tarbiya nazaryasi va metodikasi [Maktabgacha ta'lif] mutaxasisligi 1-kurs magistranti*



2. O'z shaxsini anglash;
3. Shaxsiy aqliy sifatlardan xabardorlik;
4. Ijtimoiy va axloqiy o'z-o'zini baholash tizimi.

O'yin jarayonida bolalarda ko'p sifatlar shakllanadi. Bular bolalarda birdaniga namoyon bo'lmaydi, bolalarda sekin asta namoyon bo'ladi. Bolalar bir biri bilan o'ynashganda ularda nutq rivojlanadi, shu bilan birgalikda "men" tushunchasi shakllanadi, bir birlari bilan muloqotni o'rghanadi. O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining pisixik taraqqiyoti uchun axamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlar o'yin jarayonida faqat namayon bo'libgina qolmasdan, bundan sifat va fazilatlar mustaxkamlanadi, o'zlashtiriladi. Shuning uchun pisixik nuqtayi nazardan oqilona, yani, to'g'ri tashkil qilingan o'yin bola shaxsini har tomonlama o'stiradi va shuning bilan birga bolaning butun pisixik jarayonida – sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, hayol va irodani rivojlanishiga yordam beradi.

O'yinlar tasnifiga ko'ra ikki guruxga tasnifланади. Bular ijodiy o'yinlar va qoidali o'yinla. Ijodiy o'yinlarni bolalar o'zлари o'ylab topishади. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zлари o'yinjarayonida belgilashади. Ijodiy o'yinlarga syujetli-rolli o'yinlar, sahnalashtirilgan o'yinlar, qurilish-yasashga doir o'yinlar kiradi. Sytljetli-rolli o'yin o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuniga manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur turdag'i o'yinlarning o'ziga xosligi uлarda syujet, rol va xayol qilingan vaziyatning mavjLld bo'lishidir. Buning uehun albatta, bolalar biror narsa yoki voqeа to'g'risida yetarlieha tasavvurga ega bo'lishi lozim. Masalan. bolalar "bozor" o'yinini o'ynashmoqchi bo'lishади. Bunga o'yinning qanday borishi to'g'risida syujet (voqeaning borishi) kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog'liq bo'ladi. Bolada avval g'oya tug'iladi, keyin mazmuni rivojlanadi. Ba'zan bolalar o'yinning qanday borishini oldindan belgilab oладilar.

Qoidali o'yinlar ta'limi o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O'yinda o'yin oidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin niyati o'yin harakallarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi esa, vazifasini hal etishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar. tushlinchalar bclrib bnriladi. Oyinlarda har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni sensor madaniyati nutq faoliyati, aqliy qobiliyatları takomilalashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazllunini boyitadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2020 yil 22 dekabrdagi 802-sonli qaroriga 1- ilova Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti.
2. "Илк қадам" Мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури
3. Тошкент – 2018 й.
4. Sh.M. Mirziyoyev-“Yangi O'zbekiston Strategiyasi”-Toshkent-2021.
5. Qodirova F.R. R. M.Qodirova "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi" Toshkent- 2006y
6. Qodirova F.R. R.M.Qodirova «Maktabgacha yoshdagi bolalarni ikkinchi tilga o'rgatish metodikasi» Dastur va o'quv qo'llanma. Toshkent, 2007.
7. Tosheva Nurzoda Toshtemirovna. Methods and techniques of developing cognitive activities of primary school pupils //ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal, 2020. № 10.(7.13.) Стр 80-87

